

O'QUVCHILARNI INSONIY SIFATLAR SHAKLLANISHIDA MA'NAVIYAT KOTEGORIYALARI

*Azimjonova Umidaxon Azizjon qizi
ADPI magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni insoniy sifatlar shakllanishida ma'naviyat kategoriyalari va tushunchalari, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Аннотация: *В данной статье говорится о важности предоставления учащимся категорий и понятий духовности, духовно-нравственного воспитания в формировании качеств человека.*

Annotation: *This article talks about the importance of providing students with categories and concepts of spirituality, spiritual and moral education in the formation of human qualities.*

Tayanch so'zlar: *insoniy sifatlar, ma'naviyat kategoriyalari, ijtimoiy hamkorlik, ma'naviy-ma'rifiy, sifat, fazilat, odob, axloq.*

Ключевые слова: *человеческие качества, категории духовности, общественное сотрудничество, духовно-воспитательные, качество, добродетель, нравы, этика.*

Key words: *human qualities, categories of spirituality, social cooperation, spiritual-educational, quality, virtue, manners, ethics.*

Mustaqillikning so'nggi yillarida ustuvor yo'naliishlardan biri jamiyatdaga barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni, mamlakatimiz sarhadlarining dahlsizligini va hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iboratdir.

Mamlaktimizda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi e'tirof qilindi. Milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarini umuminsoniy o'quvchilarga moslashtirish va uyg'unlashtirish asosiy vazifa bo'lib qoldi. Ma'naviy –axloqiy jihatdan tarbiyalash - insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanib kelmoqda. Ularning miqdori va sifatining ortishi insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgarilanganligining ko'rsatkichidir.

Ma'lumiki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹gi qarori, hamda 2021-yil 26-martdag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² Qarori bu ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotgani, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagani aytib o'tilgan.

Mayjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasini va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish bo'yicha tizimli ishlar belgilab berilgan. Bugungi kunda insoniyat jamiyatni, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiat, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida xam tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Insonning ma`naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma`naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatlari majmuidan iborat.

Sifat - aloxida bir shaxsning muayyan bir hislatini ifodalovchi axloqiy kategoriadir.

Fazilat - aloxida shaxs, el, elat, xalk, ulusga taallukli bo`lgan ijobiy axlokiy sifatlar majmui.

¹ (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019-y., 07/19/4307/3079-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son)

² (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son)

Ta’lim muassasalarida pedagoglar va ota-onalarning burchi o‘quvchilarni va Vatanga muxabbatli, iymonli, e`tiqodli, adolatparvar qilib tarbiyalash, shakllantirishdan iboratdir. Inson - tabiatning eng buyuk ne`mati. Unga aql-idrok, ong, farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, inson bu fazilatlarga sayqal berib, rivojlantirib, olamni, insoniyatni kamolotga yetaklab boradi. Taniqli shoirimiz E.Voxidov aytganlaridek:

Mulki borlik ichra bir mahal, Mo‘jazgina olam yaralgan,

Bermoq uchun dunyoga sayqal, Olam aro odam yaralgan.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma`naviyat elementlarining unda kanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o`rinda bu kategoriyalarning moxiyati ustida to`xtalib o`tish joizdir.

Odob – har bir insonning o`zi bir inson yoki jamoa bilan bo`lgan muloqotida hamda yurish-turishida o`zini tuta bilishidir.

Xulq – odobning ichki ko`nikmaga aylangan ko`rinishi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma`qullangan xulq-odob normalari majmui.

«Ahloq» (lotincha—xulq—atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti—harakatini tartibga soladigan qonun—qoidalar majmuidir.

Madaniyat – “jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to`plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi”.

Ma`naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruxiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Ma`naviy — axlokiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1.O’quvchilarda ma`naviy — axloqiy ongni shakllantirish.

2.Ularda ma`naviy—axloqiy his—tuyg’ularni tarbiyalash va rivojlantirish.

3.O’quvchilarda ma`naviy—axloqiy xulq—atvor ko’nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy — axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongingin jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq — atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy — axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma'naviy — axloqiy his—tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy—axloqiy xulq—atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat—e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy — axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma'naviy — axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Mushoxada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma`naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan, chizgilardan ko`rinib turibdiki, inson ma`naviyatli bo`lishi uchun juda ko`p insoniylik bilimlari sarchashmasidan baxramand bo`lishi, o`z ustida tinmay izlanishi va xayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim. Xayotni kuzatar ekanmiz, har bir insonning jiemoniy, intellektual va ma`naviy jixatdan yagona bo`lishini, unga har tomonlama aynan bo`lgan ikkinchi bir insonning yo`kligini va tarixda ham bo`lmaganligini ko`ramiz, tabiatning xassosligiga, betakrorligiga tasannolar o`qiyimiz. Insonlar bir-birlariga aynan bo`lmasalar-da, ular bir jamiyatda yashab, o`zaro hamkorlikda hamjixatlik bilan bunyodkorlik, yaratuvchilik bilan shugullanmokdalar, ezgulik urugini sochmokdalar, bu uruglarning hosilidan baxramand bo`lib yashamoqdalar. Bunday insonlar ham aqliy, ham axloqiy bilimlarni puxta egallagan, har narsaga qodir, yuzidan nur balqiydigan, tilidan bol tomadigan, xushxulq, xushfe'l insonlardir.Ular jamiyatning, xalqning sevimli farzandlaridir. Shu bois ularga xavas qilsa, taklid kilsa, ulardan namuna olsa arziydi.

Abdulla Avloniy o`zining “Turkiy guliston yoxud axloq”³ asarida ana shunday insonlar haqida bunday deydi: ”Yaxshi fazilatlarni o`ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur”. Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mexnatkash, mexr-shafkatli, bilimdon ,o`zgalar uchun kayguradigan, mard insonlarni ko`zda tutsa, “Yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshi fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytildi”, deydi. Muallif yomon insonlar deganda xasis, baxil, birovlarining yutugini ko`ra olmaydigan xasadgo`y, faqat o`zim deydigan xudbin kishilarni nazarda tutadi. Avloniy kishilarni o`zida yaxshi fazilatlarni to`plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o`zini tarbiyalab borishga o`rgangan insonlar bo`lishga undaydi.

Moziyga bir nazar tashlaylik. Erkaklarimizdan ularga xos mardlik, jasurlik, gurur kabi hislatlar meros bo`lib kelayotgan bo`lsa, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-xayo, shirinzabonlik kabi hislatlar asrlardan-asrlarga meros bo`lib o`tib kelmoqda.

Demakki, bu xususiyatlar elimiz, yurtimiz, millatimizning qondosh va jondosh ajralmas bir ma`naviy qiyofasidir. Endilikda o`quvchilarni yurish-turishlari, xatti-harakatlari, kiyinishlari bilan o`zlarini qanchalik o`ta taraqqiylashgan shahar fuqarolari kabi ko`rsatmasinlar, baribir ular qalban shu ma`naviy merosning egasidirlar.

Insonlar bir-birlariga aynan bo`lmasalar-da, ular bir jamiyatda yashab, o`zaro hamkorlikda hamjixatlik bilan bunyodkorlik, yaratuvchilik bilan shugullanmokdalar, ezgulik urugini sochmokdalar, bu uruglarning hosilidan baxramand bo`lib yashamoqdalar. Bunday insonlar ham aqliy, ham axloqiy bilimlarni puxta egallagan, har narsaga qodir, yuzidan nur balqiydigan, tilidan bol tomadigan, xushxulq, xushfe`l insonlardir.Ular jamiyatning, xalqning sevimli farzandlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Yoshlar nashryot uyi”2018 y.

³ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Yoshlar nashryot uyi”2018 y.

2. Я.Умарова, Д.Неъматова «Умумтаълим мактабларидағи ўқувчилар тил компетентлигининг жорий ҳолати таҳлили» Илмий хабарнома Педагогик тадқиқотлар Журнал 2020/6 (50).